TARIX LABIRINTI-HAQIQATDAN DARAK

Sobitjonov Yo‘ldoshali Muhsinali o‘g‘li
Namangan muhandislik qurilish instituti
akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23386650

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada tarix labirinti-haqiqatdan darak berishi, talabalarga tarix darslarini o‘qitishda qo‘llanadigan tavsiyalar yoritilgan.
Kalit so‘zlar: tarix, raqamlar, labirint, voqealar, komil shaxs, haqiqat, madaniyat.

Tarix millatning o‘tmishini, taraqqiyotini
hamda tanazzulining sabablarini o‘rganuvchi fandir.
Abdurauf Fitrat

Tarix - voqealar guvohi. Moziydan darak beradigan manbalarning qay biri sahih, qay biri yolg‘onligini ajratish ham quduq tubidan ignani topishdek gap ekanligi hech birimizga sir emas. Tarix labirinti aro haqiqatni tanlay bilish zukko kitobxonning ixtiyorida qoladi, albatta. Tarix fanini yillar, joy va shaxs nomlari, atamalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Albatta barcha yildagi voqealar, tarixiy shaxs va atamalarni eslab qolish talabalarda qiyinchilik tug‘diradi. Shu sababli, biz ustozlar zimmasiga farzand tarbiyasidek nozik masala turibdi, shunday ekan, erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli hamda faol ishtirok etishga qodir komil shaxsni tarbiyalashda kitoblardan yordam olsak, o‘z maqsadimizga erishgan bo‘lamiz.



Ta’lim muassasalarida tarix darslarida talabalarning yoshi, psixo-fiziologik xususiyatlari, umumiy o‘rta ta’lim tayyorgarligiga mos hamda tarixiy materiallarni asta-sekin, oddiydan murakkabga tomon borish asosida fandan iqtidorli talabalar bilan ishlash ta’lim jarayonini takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, o‘quvchilardagi qobiliyat va

iste'dodni yanada kamol toptirishda o'quvchilar kompetensiyalarini shakllantirish lozim. Bunda qator usullar, didaktik materiallar yordam beradi.



"Beshinchisi ortiqcha" metodi. "Beshinchisi ortiqcha" metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi. O'quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi hamda berilgan tushunchalar ro'yxatidan mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni aniqlang va ularni ro'yxatdan chiqaring, harakatlaringiz mohiyatini izohlanadi.

Tushunchalar:1)Poseydon,Yunoniston, Afina,Shamash,Aid

2)Satirlar va nimfalar, Artemida,Ares, Nika, Mitra

3)Apollon,Basserey,Germes,Dionis,Femida

4) Geya , Xronos, Indra,Gipnos, Uran

5)Apis, Ayaks,Tesey,Gerakl,Axilles

6) Kentavr,Siklop,Sfinks,Sirena,Titan

"Xronologiya usuli" raqamlarni to'g'ri tartibda joylashtiringva shu yillarda bo'lib o'tgan voqealarni yozing.

5011_____

3351_____

1061_____

6517_____

7107_____

Talabalarga tarix fanini o'rgatish jarayonida xalqimizning, jonajon o'lkamizning tarixi haqida ma'lumot berish va bu orqali ular tarbiyasida o'zlikni anglash, milliy iftixorni tiklash, ularning ongi va shuurida globallashuvning salbiy tomonlariga qarshi turishni o'zida mujassam etgan immunitetni mustahamlash asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda;

–buyuk ajdodlarmizning ishlari va jasoratlaridan axloqiy tarbiya va ibrat manbai sifatida foydalanish;

–talabalarga insoniyatning eng qadimgi davrlaridan bugungi kunga qadar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish bosqichlari sabablarini tarixiy voqea-hodisalar asosida o'rgatish;

–tarixiy voqealar asosida voqealarning sababi, bahonasi, oqibatini tahlil qila olish;

–Tarixiy voqealar ketma-ketligini tushuntirish, bir voqea ikkinchisiga, ikkinchisi uchinchisiga sabab bo'lishini, jamiyat doimo rivojlanishda ekanligini, uning markazida esa doimo inson omili turishini idrok etish;

–talabalarni tarixiy voqealarni analiz (voqealarni mayda tafsilotlarga bo'lish), sintez (mayda voqealarni umumlashtirish), filtr (asosiylarini ajratib olish) yo'li bilan tahlil qilishga o'rgatish;

–talabalarda o'zlikni anglash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllashtirish;

–talabalarga tarixiy voqea va hodisalar asosida **“Tarix – xalq ma'naviyatining asosi”** ekanligini singdirish.

–talabalarni ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'lganligini tarixiy dalillar asosida tushunishlariga erishish;

-talabalarni tarixni o'qitish orqali xalqni nomi bilan emas, balki u yaratgan madaniyat, ma'naviyat orqali tanilishini anglashga yo'naltirish nazarda tutiladi.

Xullas, tarix darslarini erkin fikrlash mashg‘uloti sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. O‘quvchi nutqini shakllantirish, o‘zi uchun mavhum bo‘lgan tushunchalarni tengdoshlari va o‘qituvchi ko‘magida o‘rganib olish imkoniyatini yaratuvchi mashg‘ulotlar, albatta, mustaqil fikrlaydigan, zamon bilan hamnafas yoshlarni tarbiyalashimizda bizga ko‘makchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «O‘zbekiston tarixi» dasturi. Toshkent. 1980-1990-yil.
2. T. Xoshimov “Tarix darslarida didaktik o‘yinlar” Metodik tavsiya, 2012-y
3. Qo‘shimcha ma’lumot uchun elektron manzillar:www.ziyonet.uz, www.istedod.uz